

SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI AYRIM TERMINLAR USLUBIYATI

Beshimova Mohichehra

Chirchiq davlat pedagogika institutining Gumanitar fanlar fakulteti 1- bosqich talabasi

Mo'ydinov Qodirjon

Ilmiy rahbar, Filologiya Fanlari bo'yicha Falsafa fanlar doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada sud-huquq tizimidagi ayrim termin va atamalarning mazmuni o'rganilib, ular xususida tegishli takliflar berib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan toki hozirgi kunga qadar jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash uchun harakat qilib kelmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan rejaga kiritilgan “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi O'zbekistonning yuksalish pog'nasidan tezkorlik bilan ilgari ketayotganining yaqol isbotidir. SHavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: “Yangi O'zbekiston- demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qa'tiy amal qilgan holda, jahon jamjamiyati bilan hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir”.³⁴ Fuqorolar orrasida huquqiy ongning rivojlantirilishi, jamiyatda ijtimoiy, siosiy himoyani keng isloh qilinishi bugungi kunning dolzarb muommolaridan biridir. Yana bir e'tibor berilishi muxim bo'lgan jihat shuki, bu O'zbekiston Respublikasi sud- huquq tizimi tarkibidagi ayrim nomutonositliklardir. Ushbu soha O'zbekiston o'z suverinitetiga ega bo'lgan kundan boshlab chuqur isloh qilingan yo'nalishlardan biridir. Xususan 2000-yildagi “Sudlar to'g'risidagi qonun”da sudyalarning vakolotlari, himoyachi va boshqa sud ishtirokchilarining vazifalari aniq belgilab berilgan.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Sh. Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston Gasitasiga bergan intervyusidan

Hozirgi kundagi eng asosiy e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan masala bu sud tizimiga oid terminlarning to'liq, mukammal variyanti ishlab chiqilishidir. Bugungi kunda mustaqil organ sifatida e'tirof etilayotgan sud tizimining o'rganilish obyekti bu insonlar hayotiga bevosita daxldor bo'gan qonunlardir, ahamiyati jihatidan juda dolzarb bo'lgan ushbu yo'nalishda hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda hech qanday nomutonasibliklarga yo'l qo'ymaslik davr talabi. Qonunlar o'ziga xos hukmni ifodalashi va e'tirozga o'rin qoldirmaydigan mantiqni shakillantirish jihatidan ajralib turadi. Shuningdek, qonun hujjatlarining qisqa va lo'nda bo'lishi ham ahamiyatga molikdir. Tilning ishtirokisiz esa bunga erishib bo'lmaydi. Qonun faqat soha vakillari uchunгина emas, balki sohadan tashqari xalq vakillari uchun ham tushunarli bo'lishi zarur. Mazkur talablarga javob berish uchun esa huquqshunos tilshunoslik ilmidan ham xabardor bo'lishi zarur. Huquq va til alohida-alohida yo'nalish hisoblansa-da, har ikkalasi bir-birining ishtirokisiz jamiyatda o'z o'rnini topolmaydigan bir butunlikdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan sanadan boshlab, qonunshunoslar zimmasiga dolzarb vazifa yuklandi, ya'ni endilikda yangicha tizimda o'zbek milliy etaloni (andoza) ni tuzish masalasi o'rtaga tashlandi. Shuningdek amaldagi qonun hujjatlarini ularning tarkibida muomalada bo'lib kelayotgan rus tilidagi so'z va iboralardan “tozalash” eng asosiy vazifa edi. Shu xususidan olib borilgan ishlar o'z natijasini ko'rsatdi ham, so'zimiz misolida aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi 2-chaqiriq Oliy Majlisi tarkibida “Normativ huquqiy atamalar bo'yicha maxsus komissiyasi” tashkil etilib, yuridik terminlarning barqarorligini tahlil etish, yuridik terminlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, qonun loyihalarini tili va uslub jihatidan ekspertizadan o'tkazish kabi bir qancha vazifalar yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamashunoslik qo'mitasi bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Ibrohim Mo'minov nomli Falsafa va Huquq instituti tomonidan o'zaro hamkorlikda tuzilgan “Yuridik terminlar sho'basini” faoliyat ko'rsatdi. 1993-yilda bu sho'badagi huquqshunos olimlar tomonidan “yuridik terminlar va iboralar lug'ati” chop etildi. Bu lug'at oldingi sobiq ittifoq paytida yaratilgan huquqiy lug'atlardan farq qilib, unda yuridik terminlar o'zbek tilining, o'zbek

xalqining milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlangan.³⁵ Qadimda huquqshunoslar mavjud qonunlarni xalqqa qanday usulda yetkazish borasida turlicha to'xtamlarga kelishgan. Bunga sabab axborot uzatish usullarining xilma-xilligi hamda ular orasida eng ma'qbulining tanlash to'g'risida bahs-munozaralar olib borilganligidandir. Qonunshunoslar tomonidan huquqqa oid hujjatlarni belgi va ishoralar orqali xalqqa yetkazish taklifi ham berilgan. Biroq bu taklif o'z ahamiyatiga ega bo'lmagan, chunki qonunning bu tarzda ifoda qilinishi uning mazmun jihatidan aniqligiga putur yetkazadi. Shu sababdan ham qonunlarni til orqali muomalaga kiritish ancha samarali va to'g'ri yo'l hisoblanadi. Huquq va tilning ahamiyati bugungi kun davr talabidan kelib chiqqan holda o'rganilishi talab qilinayotgan sohadir. Zero, qonunlari to'g'ri tuzilgan mamlakatda fuqorolarning erkin va farovon turmush tarzi kafolatlangan bo'ladi. Tarixan ma'lumki, qonunlar tuzilishida, avvalo, ularning aholiga tushunarligini ta'minlashga e'tibor berilgan. Akademik L.V. Shcherba bu haqida shunday yozadi: Yuridik til birinchi navbatda aniqlilikni, qandaydir chalkashliklarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi. Manfaatdor shaxs huquqiy normalarni tezlikda tushunishi va o'zlashtirishi, yengilgina qabul qilishi shart.³⁶ Qadimgi Rimda ham qonun tuzushning asosiy qoidasi sifatida, qonun tilining eng muhim belgilaridan biri aniqlikdir, deyiladi. Konstitutsiya va qonunlarni yaratishda qadimgi qonunchilik tajribasidan keng foydalaniladi. Yuridik til aniqlikni talab qilgan ekan, so'zlarning xilma-xilligi qonun mohiyatiga putur yetkazadi. Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida 5421 ta so'z qo'llanilgan. 1993-yil qayta ishlangan yuridik terminlar lug'atida 6700 dan ortiq atamalar izohi berilgan. Terminlarning soni yoki ularning miqdori unchalik ahamiyatga ega emas, eng muhimi ular ifodalayotgan mazmunning aniqligidir. Xususan, e'tiboringizni 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 9- moddasiga qaratmoqchimiz: Agarda jinoyatni sodir etgan shaxs o'z harakati va harakatsizligidan jamoat uchun oqibatlar kelib chiqishi mumkinligidan ko'zi yeta turib, lekin xom-xayollik bilan shu oqibatlarining oldini olishni mo'ljallab

³⁵ Ko'chimov Sh.N. "Yuridik til nazariyasi va amliyoti" Toshkent 2013

³⁶ Ko'chimov Sh.N. "Yuridik til nazariyasi va amliyoti Toshkent 2013

harakat qilsa yoki bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligiga ko'zi yetmasada ,lekin ko'zi yetishi mumkin va lozim bo'lsa,bunday jinoyat ehtiyotsizlik bilan qilingan jinoat deb taniladi.³⁷Mazkur qonun mazmunidan shunday xulosa kelib chiqadiki,qonunlarning tarjima qilinishida ham ifodalanishi kerak bo'lgan mohiyat aynan aks ettilishi kerak.Jamiyatimiz a'zolarining turmush tarzi munosib yo'lga qo'yilishi tinchlik va farovon hayotning debochasidir.

Foydalanigan adabiyotlar:

- 1.Ko'chimov.SH.N.'Yuridik til nazariyasi va amaliyoti" Toshkent 2013
- 2.O'zbekiston advokatlari himoya nutqi Toshkent 2008
- 3.O'zbekiston Respublikasi protsessual kodeksi
- 4.Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich "Ozbek tilida sud notiqqligi leksikasi " Toshkent 2015
- 5.LEX.uz va hamda UTEK.uz sayti



³⁷ KO'chimov.Sh.N "yuridik til nazariyasi va amaliyoyi Toshkent 2013